

O‘ZBEK XALQ QO‘SHIQLARI TURLARI VA ULARNING G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI HAMDA TARBIYAVIY AHAMIYATI

Qodirov Shuxrat Xuddiyevich

Buxoro davlat Pedagogika Instituti I-bosqich magistranti.

Nurullayev F.G.

Buxoro davlat Pedagogika Instituti Musiqi va tasviriy san’at kafedrası, p.f.f.d (PhD) professor

Annotatsiya: Maqolada O‘zbek xalq qo‘shiqlari turlari va ularning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari va tarbiyaviy ahamiyati. Xalqning manaviy va moddiy turmush tarzi, va ularning goyaviy-badiiy xususiyatlari, axloq mezonlari, o‘tmishi, buguni va kelajagi, manaviy hayotga bo‘lgan qiziqish va intilishlarini va tarbiyaviy ahamiyatini namoyon etishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilishi haqida so‘z borgan.

Kalit so‘zlar: g‘oyaviy- badiiy, tarbiyaviy, serqirrali, teranlik, mantiqiy, marosim, lapar, ashula, yalla.

Аннотация: В статье рассматриваются роль и художественно-идеологические качества Узбекских народных песен в воспитании молодежи. Знакомство со своей национальной культурой. Обсуждаются структура личности, место детского народного фольклора у школьников, целенаправленные педагогические процессы формирования и интеграции нравственных качеств.

Ключевые слова: художественно-идеологические, народные песни, культура, музыка, песня, мероприятие, чувство, интеллект, арт, литература, дитя, способность, воспитание.

Xalq og‘zaki ijodi badiiy adabiyotning eng qadimgi shaklidir. Negaki badiiy asarlar dastlab og‘zaki shaklda paydo bo‘lgan, og‘izdan -og‘izga ko‘chib yurgan. Hech qanday yordamchi vositalarsiz xalqning xotirasi tufayli davrlar osha avlodlarga yetib kelgani hamda kim tomonidan yaratilgani noma‘lum bo‘lgani uchun ham bunday asarlarga xalq og‘zaki ijodi namunalari deyilgan. »Xalq og‘zaki ijodi« birikmasi o‘rnida »Folklor« inglizcha »folk (xalq) va »lore« (donolik) so‘zlaridan yasalgan. Xalq qo‘shiqlari muhim targ‘ibot vositasi hamdir. Ular millatning urf-odatlarini, dunyoqarashi, tuyg‘ularini targ‘ib qiladi va avloddan-avlodga yetkazadi. Folklor qo‘shiqlari badiiy-estetik manbalar sifatida kishi hissiyoti orqali aqlni, aql orqali esa hissiyotni tarbiyalash vositasidir.

Xalq qo‘shiqlariga xos xususiyat xam aqliy teranlik, mantiqiy fikrlash asosida manaviy fazilatlarning barcha qirralarini ongli ravishda o‘zlashtirish orqali aqliy barkamollikka erishishni atminlashdan iboratdir. Unda musiqiy qobiliyatni

shakllantirishning butun vositasi sifatida o'quvchilarning faoliyati kundalik muloqot jarayonida amalga oshiriladi. Folklore qo'shiqlarining qamrov doirasi chegaralanmagan. Ularning kattalar yoki o'quvchilar qo'shiqlari, kichik yoki kata yoshdagi o'quvchilarga mos qo'shiqlar sifatida izohlash nisbiy xarakter kasb etadi.

O'zbek xalq musiqasi o'zining serqirrali mazmuni, shakli va janri bilan O'rta Osiyodagi tojik, turkman, qirg'iz va boshqa xalqlar musiqa madaniyati bilan chambarchast bog'liqdir. Xalq tomonidan yaratilgan bu durdona asarlar asrlar osha mukammallashib va murakablashib bizgacha yetib kelgan. Xalq qo'shiqlari bir ovozli bo'lishiga qaramasdan ajoyib kuygan va turli usullarga ega bo'lgan o'zbek san'atining milliy xazinasidir.

O'tmishda o'zbek elida ko'p xonliklar bo'lib har qaysi xonlik o'z sozanda va xonandalariga ega bo'lgan. Shuning uchun xalq qo'shiqlari har bir vohada mustaqil o'z yo'nalishiga ega bo'lgan. Toshkent va Farg'ona kuy va qo'shiqlari Xorazm vohasidagi kuy va qo'shiqlardan, Buxoro qo'shiqlari Toshkent qo'shiqlaridan yoki Toshkent va Farg'ona vohasidagi «Katta ashula» boshqa vohalarda yo'qligi so'zimiz icboti bo'la oladi. Agar Toshkent, Farg'ona, Xorazm qo'shiqlari o'rta diapozonga ega bo'lgan musiqiy asarlar bo'lsa, Buxorodagi «xalq qo'shiqlari» keng diapozonga ega bo'lgan musiqiy san'at namunalaridir. Xalq qo'shiqlarimizga musiqa asboblarning jo'r bo'lishi bu alohida ahamiyatga egadir. Ba'ze holatlarda kuylar asboblari jo'rligida yana ham maydalashib kuyga o'zgacha jilo beradilar. Xalq kuy va qo'shiqlarimiz ikki xil ansambl jo'rligida ijro etiladi. Biri-uyda, xonada (doira, g'ijjak, nay, tanbur, rubob, dutor) va ikkinchisi katta marosimlarda-karnay, surnay, nog'ora, bir necha doira va boshqa asboblari jo'rligida. Xalq kuylarimizni yana ikki turga bo'lishimiz mumkin: cholg'u turi va ashula turiga. Masalan «Yangi tanavor», «Dutor bayoti», «Rohat», «Gul sayri»-kitoblar cholg'u turiga kirsalar, «Chorgoh», «Bayot-5», «Ushshoq», «Chapandozi navolar» qo'shiq turidan nishonalardir. Xalq qo'shiqlarimiz turli yo'nalishlarga ijro etiladi:- lirik qo'shiqlar, marosim qo'shiqlari, mehnat haqidagi qo'shiqlar, laparlar, yallalar va bolalar uchun ijod qilingan asarlardan iboratdir.

Buxoroda-mavrigiyxonlik, Toshkent va Farg'onada-yalla, Xorazmda esa sho'x o'ynoqi turdagi qo'shiqlar ijro etiladi.

- Yalla-bandli (kupletli) qo'shiq bo'lib, uch-to'rt xonanda ijrosida aytiladigan asardir. Qo'shiqning boshlanish qismini hamma, o'rta avjini ikki-uch xonanda va katta avjini bir xonanda ijro etib qo'shiqning ikkinchi yarmisini yana hamma xonandalar birga ijro etadilar. Masalan N.Hasanovning «Karvon keladi», Farg'ona yo'llaridan «Jonon bo'laman deb» va boshqalar.

- Ashula janrida ko'proq lirik xarakterga ega bo'lgan, insonni psixologik va ichki his-tuyg'ularini bildiradigan qo'shiqlar kiradi. Masalan «Katta ashula» musiqa asbobisiz ijro etilib, ashulachi qo'lga kichik likibcha yoki la'licha ushlab qo'shiq aytadi. Katta ashula xonandadan katta dipozonga ega bo'lishni, yaxshi nafas olish

imkoniyatiga ega bo‘lishni talab etadi. Katta ashulani uch-to‘rt xonanda, kamdan-kam holatlarda ikki kishi ijrosida tinglaymiz. Masalan: «Bir keling», «Ko‘p erdi», «Adashganman», «Ul kun jonon» va boshqalar.

- Lapar xalq orasida juda ko‘p uchraydigan musiqiy merosdir. Lapar ko‘proq Xotin-qizlar tomonidan raqs va qo‘shiqni birligida ijro etiladi. Laparlar har xil mazmundagi asarlardan iborat bo‘lib ishq-muhabbat, mehnat va yoshlikni tarannum etadigan ohanglardan iboratdir. Masalan «Qora soch», «Oyijon» va boshqalar.

- Marosim (obryadovie) qo‘shiqlari xalq orasida uncha ko‘p bo‘lmasada, lekin turmush sharoitining odatiga kirib qolgan. Masalan: «Yor-yor». Nikoh marosimlarida ijro etiladigan bu qo‘shiq qiz bolani turmushga uzatish vaqtida aytilib quvnoq va sho‘x suratda ijro etiladi. «Yor-yor» qo‘shig‘i birnecha variantni tashkil etadi. Toshkentda bir xili, Farg‘onada va Namonganda ikkinchi, Samarqandda boshqa xillari mavjuddir.

- Marsiya, yig‘i qo‘shig‘i o‘lim marosimlarida aytiladigan asarlar turkumidir. Marsiya, yig‘ilarni Xotin-qizlar ichkarida, uyda aytadilar. Yig‘i so‘zlarini o‘lgan kishining yaqinlari aytadilar va qolganlar o‘z hamdardliklarini yig‘i vositalari bilan izhor etadilar.

- Mehnatga bag‘ishlangan qo‘shiqlar xalq orasida tez-tez uchrab turadigan asarlardir, bular «Charx», «Hashar», «Paxta terish», «Mehnat ahli», «Fabrika», «Paxtakorlar» nomli qo‘shiqlardan iboratdir.

- Bolalar uchun yozilgan yoki qo‘shiq mazmuni bolalarga atalgan bir qancha xalq qo‘shiqlari bor. «Alla», «Qo‘g‘irchoq», «Oq terkmi, ko‘k terak», «Yomg‘ir yog‘aloq», «Binfsha», «Bog‘chamiz» va boshqalar.

- Xalq orasida zulm-istirob to‘g‘risidagi qo‘shiqlar ham bor. Bular «Xondan dod», «Xon zulmi», «Nikalay qon jallod», «Poyezdingni yurgizgan», «Ming la‘nat» va boshqa xalq qo‘shiqlarini tashkil etadi.

Qo‘shiq san‘atning insoniyat tomonidan eng oldin o‘ylab topilgan turi deb taxmin qilinadi. Lirik qo‘shiqlarga xos bosh xususiyat shundan iboratki, ular xoh sozsiz, xoh soz jo‘rligida bo‘lsin, kuylangan, ijro etilgan. Shuningdek, ularda muallifning ichki kechinmalari, tuyg‘ulari, quvonch-u alamlari ifodalangan. O‘zbeklar orasida juda keng yoyilgan, hozirga qadar ham turli shakllarga solib kuylanayotgan xalq qo‘shiqlaridan biri »Qarg‘alar uchsa qaraylik« satri bilan boshlanadigan qo‘shiqdir. Unda suyganiga intilib, yetolmagan oshiq holati g‘yat dardchil tasvir etilgan. Qarg‘a- qish elchisi. Turkiy xalqlar uchun qish ko‘ngilsizlikni bildiradi. U ayriliq, xazon, yo‘qotish singari ezgin tushunchalarni ifodalaydi. Shu bois oshiq yigit qarg‘aning uchishini ko‘riboq, Marg‘ilon yo‘llarini eslaydi. Ayni vaqtda, Marg‘ilon unga »handalak bo‘yli« yorini yodga tushiradi. Visoliga erishmoq mushkul bo‘lgan yor shu qadar yoqimlik, undan handalakdan keladigan mast qiluvchi shirin bo‘y taraladi. Ma’shuqa yodga tushishi bilan oshiq o‘zining onasidan ajralgan to‘tiqush singari ayanch ahvolini qayta tuyadi: »handalak bo‘ylikkinam, Siz unda zor, biz bunda zor.

To'tiqushning bolasidek ikkalamiz intizor». Lirik qahramon suyuqlisi bilan o'zining holatini o'ylagani sari qo'shiqda ezgin ruhiy holat ifodasi kuchayib boraveradi:

Intizorlik torta-torta
Tanda toqat qolmadi.
Yo'lchivindek sarg'yib
Ucharga holat qolmadi.

Qarg'aning ucha boshlashi qishdan darak berganidek, uning paydo bo'lishi oshiq uchun visol bog'lariga qirov qo'nganidan, ishonch yaproqlarini sovuq urganidan dalolat bo'ladi. Qish kirib kelgach, yo'lchivinlar sarg'ayib, halokatga mahkum bo'lganligi singari vasldan umidini uzgan oshiqning ham hayotdan ilinji qolmagan. G'arib va chorasiz oshiq ma'shuqasi yo'lida shu qadar ko'p ko'z yosh to'kadiki, ulardan baliq suzib yurishi mumkin bo'lgan daryo hosil bo'ladi. Oshiq yigit holini ana shu baliqlardan so'rash mumkin. Ma'lumki, baliqlar gapirmaydi, ovoz chiqarmaydi. Demak, sevgan yigitning ruhiy holati g'oyat ezgin va nochor.

Lirik qo'shiqlar, asosan, dard ifodasi o'laroq paydo bo'ladi. Chunki chinakam insoniy dardni oddiy so'zlar bilan ifodalash mumkin emas. Inson o'z dardini bir qadar yengillatmoq uchun ham uni qay shakldadir aytib, ko'nglini bo'shatgisi keladi. »Holichangda gul ko'rdim» qo'shigi ham ko'nglini bo'shatgisi kelgan inson tuyg'ularini ifodalaydi. Qo'shiqning qahramoni- iztiroblar og'ushida qolgan nochor kimsa. She'rning dastlabki bandida o'z chorasizligini ifodalash bilan birga, ko'pdan beri ko'rmagan yorini »uxlab tushida» ko'rganini aks ettiradi. Keyingi bandeda esa o'zining injiq va tushunarsiz ruhiy holatini izohlaganday bo'ladi:

Eshik oldi Oydinko'l,
Oyna solsam botmaydi.
Men yorimni sog'indim,
Xat yuborsam qaytmaydi.

Qo'shiqlarda xalqqa xos bo'lgan chechanlik, chapanilik, topqirlik, qaytmaslik kabi sifatlar ham aks etadi. Bu jihatda »Kelinoy» deb ataluvchi qo'shiq diqqatga sazovordir. Qo'shiqning qahramoni- suluvlikda ham, chaqqonlikda ham, aqlida ham tengsiz qiz. Barcha qo'shig'-u she'rlarda bo'lgani kabi uning ko'ngli kimdaligi noma'lum. Shu bois lirik qahramon unga tadbir o'rgatadi:

Oy tug'adi quroqdan,
Suv tinadi buloqdan.
Oshiqligang bilayin,
Ro'moling to'lg'a yiroqdan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak: O'zbek xalqining qadim-qadim zamonlarga borib taqaladigan musiqa merosi, xalq qo'shiqlari, xilma-xil janrlari hamda boy tasviriy

vositalari bilan bizning kunlarimizda ham yangramoqda. xalq qo'shiqlari ifodaning nozikligi, ruhiy holat tasvirining kuchliligi bilan asrlar davomida qalblarni bog'lab keladi. Ularning badiiy tasvir darajasi yillar o'tsa-da yuksalib boradi. Ko'rinib turibdiki, ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan marosimlar hamda unga ijro etiladigan aytimlar aholining har bir o'tayotgan kunini qadrlash ardoqlash o'tayotgan umrni mazmunan boyitish, urfga aylangan qadriyatlarga sadoqatligini isbotlagan holda kelajak avlodga qoldiradi.

ADABIYOTLAR

1. Nurullaev F.G. The role of folklore in the raising of children. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 12, 2020 Part III ISSN 2056-5852.
2. Нуруллаев Ф.Г., Композиционный и исполнительский процесс в музыке // «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 576-581.
3. Нуруллаев Ф.Г. Импровизаторское творчество в XX веке по сфере музыки// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 582-587.
4. Nurullayev F.G. FORMATION OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN ON THE EXAMPLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS. Euro-Asia Conferences 1 (1), 34-36.
5. Nurullayev F.G. METHODOLOGICAL REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF BUKHARA FOLK SONGS IN MUSIC EDUCATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 1 (01), 83-88.
6. Нуруллаев Ф.Г. Обряды и обычи связанные с рождением и воспитанием ребенка. Музыкальное искусство и образование: традиции и инновации: сборник материалов международное научное конференции. Бухара, 2019. 317–320 стр.
7. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Музыкально-историческое наследие центральной Азии (психологический настрой армии Темура). Психология XXI столетия, 18-20 марта 2020 года С. 115-118.
8. Нуруллаев Ф.Г. Мусика таълимида Бухоро фольклор кўшиқларига қўйиладиган методик талаблар. Pedagogik mahorat, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2020, 3-son. Buxoro. Б.175-180.
9. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся. Научно– методический журнал «Проблемы педагогики» №3(48). Москва 2020. С.15-17.
10. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Формирование эстетического воспитания детей на примере Бухарских фольклорных песен. «MODERN

SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS» collection of scientific works of the international scientific conference Issue 4(260 Warsaw, Poland 2020. P. 139-141.

11. Nurullayev F.G., Madrimov B.K., Rajabov T.I. Teaching Bukhara Children Folk Songs in Music Lessons as an Actual Problem. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol.24, Issue 04, 2020 P. 6049.

12. Нуруллаев Ф.Г., Случайный выбор качественных характеристик материала по музыки или порядок его изложения в процессе создания музыки или исполнения опуса//«SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal. ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 588-593.

13. Нуруллаев Ф.Г. Мусиқа таълимида Бухоро фольклор кўшиқларини ўргатиш жараёнини лойиҳалаш. Бухоро мусиқа фольклорининг тарихий-назарий ва амалий масалалари. Республика илмий-назарий анжуман материаллари. 2020 йил, 6 ноябрь. Бухоро, 2020- Б. 107-111.

14. Нуруллаев Ф.Г. Из истории смычковых инструментов у мастеров Амати Николо, Гварнери и Страдивари. Материалы международного научно-творческого форума. Часть 1- Челябинск, 2016.-С.158-159

15. Нуруллаев Ф.Г. Особенности и условия развития творческих музыкальных способностей детей. Вестник интергративной психологии. Журнал для психологов. г. Ярославль, Выпуск №17, 2018. – С.125-128.

16. Nurullayeva N.G., Nurullaeva N.K., Nurullaev B.G. Role and significance of folkler music in the upbringing of children of preschool age. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal. Vol.10, Issue 10, October 2020.

17. Nurullayev F.G. Узлуксиз таълим тизимида Бухоро фольклор кўшиқларини ўргатишнинг ўрни ва аҳамияти// О'zbekiston Milliy Universiteti xabarлари, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2021-yil 6-son.- Toshkent. B.177-186.

18. Нуруллаев Ф.Г., Музыкальный процесс в западной музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021. - pp.570-575.

19. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся// Научно – методический журнал «Проблемы педагогики». №3 (48). - Москва 2020.- С.15-17.

20. Nurullayev F.G The Role and Significance of Folk Music in Raising Children. European Journal of Innovation in Nonformal Education(EJINE) Volume 2| Issue 5| ISSN:2795-8612 **Accepted** 14 May2022.

21. Нозима Кудратовна Нуруллаева. Подготовка будущих учителей музыки к методически грамотной профессиональной деятельности. Science and education scientific journal, issn 2181-0842, volume 3, issue 1, january 2022.975-981.

22. Нуруллаев Ф.Г., Норова Ш.У. Психология музыкальных дидактических игр на интегрированных занятиях// Вестник интергративной психологии. Журнал для психологов. Выпуск №17, 2018. – С.295-299.

23. Нуруллаев Ф.Г. Содержание обучения бухарским народным песням в музыкальном образовании// Academy, № 3 (66), 48-50, ООО «Олимп».

24. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев. Моделирования педагогических с музыкальным уклоном действие объектов через математический аппарат в педагогике// SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL, ISSN 2181-0842, VOLUME 3, ISSUE 1, JANUARY 2022.589-595.

25. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев. Интерактивные уроки музыки по программы STEAM// SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL, ISSN 2181-0842, VOLUME 3, ISSUE 1, JANUARY 2022.595-602.

26. Нодира Каримовна Нуруллаева. Методические аспекты музыкального образования, особенности обучения народных песен в 5-7 классах// SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL, ISSN 2181-0842, VOLUME 3, ISSUE 1, JANUARY 2022.957-963.

27. Бобиршоҳ Гайбуллоевич Нуруллаев. Музыкальный ракурс изучаемого объекта в особенности обучения фольклора// SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL, ISSN 2181-0842, VOLUME 3, ISSUE 1, JANUARY 2022.963-969.

28. Нигора Каримовна Нуруллаева. Теории музыки основа - основ музыкального формирующих принципов и правил произведения// SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL, ISSN 2181-0842, VOLUME 3, ISSUE 1, JANUARY 2022.969-975.

29. Мехринисо Бобиршоҳ кизи Нуруллаева, Нодир Джалолович Ядгаров. Мировые шедевры живописи великих художников - маятник в развитии художественного искусства// SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL, ISSN 2181-0842, VOLUME 3, ISSUE 1, JANUARY 2022.981-987.

30. F. Nurullayev. “Musiq ta’limida Buxoro folklor qoshiqlarini o’rgatishning ilmiy-metodik xususiyatlari”-(PhD) Diss. ishi. 2021y